


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



IT JARROHLIK KASALLIKLARINING NAZARIY VA AMALIY
ASOSLARI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	840000	– Veterinariya
Mutaxassislik:	70840106	– Kinologiya va it kasalliklari

Samarqand 2024

Fan modul kodi IJKNAA1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanning maqsadi – magistrlarda itchilik pitomniklarida qo'llaniladigan xirurgik operatsiyalarni o'tkazishni qoida va usullari, xirurgik kasalliklarni etiologiyasi, patogenezini, klinik belgilarini, davolash va oldini olish usullaridan foydalanish bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - magistrarga mutaxassislik doirasida bilim yaratish va uni o'rganish, itlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarini kelib chiqish sabablarini aniqlash, xirurgik kasalliklarini aniqlash usullari va umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish, xirurgik kasallangan itlarni davolashda zamonaviy dori vositalar, asbob-uskunalaridan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqadi va yaratadi. Xirurgik kasallangan itlarda zamonaviy davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda malakali magistr larni tayyorlashdan iboratdir. Shu yo'nalishdagi magistr larga itlarda xirurgik operatsiyalarni o'tkazish va davolash qoida va usullarini o'rgatish, zamonaviy usullar yordamida yangi operatsiya usullarini o'tkazish texnikasini yaratishni bilishi kerak. Magistr amaliyotda xirurgik kasal itlarni o'z vaqtida aniqlash, xirurgik yordam ko'rsatishni zamonaviy usullarini to'g'ri tashkil etish, magistr larning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari.</p> <p>Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanning maqsadi va vazifalari. Itlarning jarrohlik kasalliklarining tasniflanishi. Kinologiya pitomniklari va veterinariya klinikalarida xirurgik ishlarni tashkil etish bosqichlari va qoidalari. Itlarda jarrohlik kasalliklarini o'rganishning nazariy va amaliy asoslari.</p> <p>2-mavzu. Xirurgiya fanining zamonaviy muammolari va ularni yechish yo'llari.</p>				

Bugungi kunda xizmat va aholi qaramog'idagi itlarda uchraydigan xirurgik kasalliklar turlari, tasniflanishi, uchrash darajasi. Muammoning dolzarbligi va uni bartaraf etish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar. Veterinariya amaliyotida xirurgik kasalliklari diagnostika qilish usullari.

3-mavzu. Og'riqning itlar organizmiga ta'siri.

Og'riq to'g'risida umumiy tushunchalar. Og'riqning fiziologik xususiyatlari. Og'riqning turlari, paydo bo'lish sabablari va mexanizma. Kasalliklar davrida og'riq natijasida itlar organizmida sodir bo'ladigan fiziologik va patologik o'zgarishlar va ularni bartaraf etish.

4-mavzu. Itlarda og'riqsizlantirish usullari.

Og'riqsizlantirish haqida tushuncha. Kinologiya va veterinariya amaliyotida itlarda xirurgik operatsiyalar o'tkazishda qo'llaniladigan zamonaviy og'riqsizlantiruvchi vosita va usullar. Itlar mahalliy va umumiy og'riqsizlantirish usul va vositalari qo'llash. Itlarda narkoz chaqirish va uning kechishi.

5-mavzu. Itlarda operatsiya o'tkazishda aspetika va antiseptika qoidalari.

Itlarda xirurgik operatsiya o'tkazishda ularni operatsiyaga tayyorlash, klinik tekshirish usullari, Hayvonlarda operatsiya maydonchasini tayyorlash, xirurg va uni yordamchilari qo'llarini operatsiyaga tayyorlash, xirurgik instrumentlar va tikuv, bog'lov materiallarini dezinfektsiyasi.

6-mavzu. Xirurgik operatsiya elementlari.

Itlarda o'tkaziladigan xirurgik operatsiyalarning umumiy tamoyillari. Xirurgik operatsiya elementlari va ularni bajarish bosqichlari. Itlarda operatsiya o'tkazishda yumshoq va qattiq to'qimalarni ajratish, qon oqishni vaqtinchalik va batamom to'xtatishning zamonaviy usullari va to'qimalarni birlashtirish.

7-mavzu. Itlarning bosh oblastidagi operatsiyalar.

Itlarda boshsoxasining anatomo-topografik tuzilishi. Bosh sohasida joylashgan organlarning joylashishi. Innervatsiyasi va qon bilan ta'minlanishi. Nervlarning o'tkazuvchan og'riqsizlantirish quloq suprasini qisman kesish texnikasi. Tishlarni ekstraktsiya qilish texnikasi. Tish toshlarini olib tashlash.

8-mavzu. Itlarning bo'yin oblastidagi operatsiyalar.

Itlarda bo'yinning ventral qismining anatomo-topografik tuzilishi. Bo'yinning ventral qismida joylashgan sohasida joylashgan organlar. Innervatsiyasi va qon bilan ta'minlanishi. Nervlarning o'tkazuvchan og'riqsizlantirish. Itlarda traxeotomiya va ezofagotomiya operatsiyalarini o'tkazish texnikasi.

9-mavzu. Itlarning ko'krak oblastidagi operatsiyalar.

Itlar ko'krak sohasining anatomo-topografik tuzilishi. Qatlamlari, ko'krak

qafasida joylashgan organlar. Ko'krak sohasida operatsiya o'tkazish vaqtida nervlarning o'tkazuvchan og'riqsizlantirish texnikasi. Itlarda pnevmotoraks va gemotoraksni jarrohlik usulda davolash texnikasi.

10-mavzu. Qorin oblastidagi operatsiyalar.

Itlar qorsht sohasining anatomo-topografik tuzulishi. Qorin devorining itlarda tuxzilishi va qavatlari. Itlada Laporotomiya operatsiyasi texnikasi. Xizmat itlari va uy itlarida gastrotomiya operatsiyasi, ichaklarni kesish va enterotomiya texnikasi. Operatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar.

11-mavzu. Itlarning bachadon va sut bezlaridagi operatsiyalar.

Urg'ochi itlarning jinsiy organlarining anatomo-topografik tuzilishi. Itlarda jinsiy organlar patologiyalari. Itlarda Kesarevo kesimi o'tkazish operatsiyasi texnikasi. Itlarda ovarioektomiya operatsiyasi texnikasi. Itlarda uchraydigan sut bezi o'smalari va ularni olibxirgik usulda olib tashlash texnikasi.

12-mavzu. Suyak sinishlarini zamonaviy usullari bilan davolash.

Itlarda suyak to'qimasining anatomo-topografik tuzilishi. Suyaklarning anatomik va fiziologik xususiyatlari. Suyak sinishlarining etiologiyasi va itlar orasida tarqalish darajasi. Suyak sinishlarini konservativ usul bilan davolash. Suyak sinishlarini davolashda osteosintez operatsiyasi texnikasi.

13-mavzu. Teri va teri osti kletchatka kasalliklari.

Itlar oarasida teri va teri osti kasalliklarining turlari, tasniflanishi, sabablari, uchrash darajasi. Itlarda uchraydigan ekzemalarning diagnostikasi va davolash. Dermatitlarining itlarda kelib chiqish sabablari va davolash usullari. Papilloma. Xuppoz. Flegmona. Simptomlari va davolash.

14-mavzu. Termik va kimyoviy shikastlanishlar.

Itlarda termik va kimyoviy kuyishlarga olib keladigan sabablar va ularni bartaraf etish yo'llari. Kuyishlar. Kuyishning bosqichlari, klinikasi va davolash usullari. Itlarda sovuq urishi Simptomlari va davolash, qo'llaniladigan vositalarning tavsifi.

15-mavzu. Itlarda muskul kasalliklari.

Itlarda tayanch harakat organlarining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Muskul kasalliklari va ularning itlar orasida tarqalishi. Miozit va miopatozlarning etiologiyasi, davolash va oldini olish. Atrofiyalarning etiologiyasi, davolash va oldini olish. Muskullarni uzilishining etiologiyasi, davolash va oldini olish. Simptomlari va davolash.

16-mavzu. Itlarda bo'g'im kasalliklari.

Itlarda bo'g'imlarning tuzilishi va fiziologik xususiyatlari. Bo'g'im kasalliklarining tasniflanishi va itlarda uchrash darajasi. Bo'g'imlarning

anatomo-topografiyasi, bo'g'im kasalliklarining tasniflanishi, itlarda artrit va artrozlarni klinik belgilari, diagnostikasi va davolash uchun ishlatiladigan vositalar.

17-mavzu. Nerv tizimi organlari kasalliklari.

Itlarda nerv tizimi organlarining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Itlarda miyani chayyalishi va lat yeyishi kasalligining simptomatikasi va davolash usullari. Orqa miyani shikastlanishi kasalligining simptomatikasi va davolash usullari. Nevrit. Falajlanish. Simptomlari va davolash.

18-mavzu. Siydik-jinsiy a'zolar kasalliklari.

Erkak va urg'ochi itlar organizmining siydik-jinsiy organlarining anatomo-topografik tuzilishi. Itlarda Siydik-tosh kasalliklari va ularni bartaraf etish usullari. Parafimoz va fimozning klinik belgilari, davolash usullari. Jinsiy a'zo va xaltaning o'smalari. Simptomlari va davolash.

19-mavzu. Quloq kasalliklari.

Itlarda eshitish organlarining anatomo-topografik tuzilishi va fiziologik xususiyatlari. Itlarda quloq suprasining gematomasining sabablari, diagnostikasi va davolash. Tashqi, urta va ichki quloqning yallig'lanishi (otit). Simptomlari va davolash. Otitlarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar.

20-mavzu. Ko'z kasalliklari.

Itlarda ko'rish organlarining anatomo-topografik tuzilishi va fiziologik xususiyatlari. Itlarda ko'z kasalliklarining etiologiyasi, keltirib chiqaruvchi omillar. Kasalliklarning tasniflanishi. Qovoqlarni qaytib qolishi. Konyunktivitlar. Keratitlar. Gavxarni xiralanishi. Panoftalmit.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Itlarni zamonaviy usullar yordamida fiksatsiya qilish.
2. Itlarni klinik tekshirish usullari.
3. Og'riqni itlar organizmiga ta'siri.
4. Itlar narkozi, mahalliy og'riqsizlantirish usullari
5. Xirurgik operatsiya elementlari.
6. Itlarda aseptik va yiringli yallig'lanishlarni davolash.
7. Itlarda jarohatlarni davolashning xususiyatlari.
8. Itlarda yara va oqmalarni davolash.
9. Bosh oblastidagi operatsiyalar.
10. Alveolyar periodontitni davolash. Tishni ekstirpatsiya qilish. Jag' suyaklari osteosintezi.
11. Qorin oblastidagi operatsiyalar.
12. Itlarni ichaklarida o'tkaziladigan operatsiyalar.
13. Dabbalar va ularni xirurgik usulda davolash.

14. Itlarning bachadon va sut bezlaridagi operatsiyalar.
15. Suyak sinishlarini zamonaviy usullari bilan davolash.
16. Kurak va yelka suyagining sinishini davolash.
17. Jarrohlik kasalliklarini kelib chiqishining nazariy asoslari.
18. Teri va teri osti kletchatka kasalliklari.
19. Termik va kimyoviy shikastlanishlar.
20. Muskul kasalliklari.
21. Nerv sistema kasalliklari.
22. Siydik-jinsiy a'zolar kasalliklari.
23. Itlarda splenektomiya texnikasi.
24. Quloq kasalliklari.
25. Itlarda ko'z kasalliklarini davolash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Itlarni fiksasiya qilish usullari.
2. Novokain blokada patogenetik terapiya usuli.
3. Plastik operatsiya elementlari.
4. Qon quyish usullari.
5. Hiqildoqda o'tkaziladigan operatsiyalar.
6. So'lak bezlarida o'tkaziladigan operatsiyalar.
7. Itlarda plevra usti novokain qamali.
8. Itlarni ichaklarida o'tkaziladigan operatsiyalar.
9. Itlarni axtalash texnikasi.
10. Jinsiy a'zoning tuzilishi va operatsiya o'tkazish texnik.
11. Tish kasalliklari va ularni davolash.
12. Pastki jag' kasalli.
13. Dabbalar va ularni xirurgik yo'l bilan davolash.
14. Xirurgik kasalliklarda fizioterapiya usullari.
15. Sovuq urish.
16. Elektr shikastlanish.
17. Nurlanish.
18. Qon tomir kasalliklari.
19. Limfa tomir kasalliklari.
20. Xonadonda tintuv o'tkazish metodikasi.
21. Bosh miya kasalliklari.

3

V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840106- Kinologiya va it kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mustaqil Respublikamizning qishloq xo'jaligi va veterinariya sohasini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan magistr talabalar yuqori saviyali, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim.

"It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" – fani magistrlarda itchilik pitomniklarida qo'llaniladigan xirurgik operatsiyalarni o'tkazishni qoida va usullari, xirurgik kasalliklarni etiologiyasi, patogenezini, klinik belgilarini, davolash va oldini olish usullaridan foydalanish bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishni o'rganishdan iborat.

Ushbu fan magistr talabalarga mutaxassislik doirasida bilim yaratish va uni o'rganish, itlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarini kelib chiqish sabablarini aniqlash, xirurgik kasalliklarini aniqlash usullari va umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish, xirurgik kasallangan itlarni davolashda zamonaviy dori vositalar, asbob-uskunalaridan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqadi va yaratadi, shuningdek xirurgik kasallangan itlarda zamonaviy davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashni o'rgatadigan fandır.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, kinologiya va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rnini bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsatmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida berilgan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga qarab taqsimlangan.

Shuning uchun "It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanidan yozib tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi deb hisoblayman.

"It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanining dasturini o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

TDAU, "Umumiy zootexniya va veterinariya"
kafedrası professori, v.f.n.

(Signature)

D.S.Vaxidova.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilimsohasining 70840106- Kinologiya va it kasalliklari mutaxassislari uchun tayyorlangan "It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mustaqil Respublikamizning qishloq xo'jaligi va veterinariya sohasini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan magistr talabalar yuqori saviyali, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim.

"It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" – fani magistrlarda itchilik pitomniklarida qo'llaniladigan xirurgik operatsiyalarni o'tkazishni qoida va usullari, xirurgik kasalliklarni etiologiyasi, patogenezini, klinik belgilarini, davolash va oldini olish usullaridan foydalanish bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishni o'rganishdan iborat.

Ushbu fan magistr talabalarga mutaxassislik doirasida bilim yaratish va uni o'rganish, itlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarini kelib chiqish sabablarini aniqlash, xirurgik kasalliklarini aniqlash usullari va umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish, xirurgik kasallangan itlarni davolashda zamonaviy dori vositalar, asbob-uskunalaridan foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqadi va yaratadi, shuningdek xirurgik kasallangan itlarda zamonaviy davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashni o'rgatadigan fandır.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, kinologiya va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarining tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.


Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsatmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida berilgan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga qarab taqsimlangan.

Shuning uchun "It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanidan yozib tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi deb hisoblayman.

"It jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari" fanining dasturini o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,
"Yuz-jag' jarrohligi" kafedrasini mudiri,
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent



o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy amaliyot (Stajirovka):

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.

4.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kinologiyaning kelib chiqish tarixini, xizmat uchun ishlatiladigan itlar zotlarni, itlarning eksteryeri va interyerini, itlar xulqining fiziologik asoslarini, itlarning kelib chiqishini, tashqi muhitning organizmiga ta'sir qilish haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • itlarni umumiy dressirovka usullari, itlarni maxsus dressirovka usullari, it va o'rgatuvchi orasidagi munosabati haqida <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • itlar bilan munosabatni to'g'ri tiklash, itlarning dressirovkasida moslama va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni</p>

	bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
7.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bogoslavskaya L.S. i dr. O sobake, uchebnik, M.: 1992. 2. Ziyodinova F. va boshqalar, Kinologiya asosolari, o'quv qo'llanma, T.: 2003. 3. Xasanova R.A. Dekorativnoe sobakovodstvo, uchebnik, T.: 1990. 4. I.Tangirov, B.Narziyev, J.Yulchiyev, T.Mirzayev, M.Abdurashitov – Itlarda uchraydigan kasalliklarni oldini olish va davolash. Uslubiy qo'llanma, Toshkent 2021 yil <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet. 6. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet. 7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni. 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qaror 10. Victoria Aspinall, Melanie Cappello. Introduction to Veterinary Anatomy and physiology, textbook, Toronto, 2015. <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 11. www.gov.uz -O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 12. www.lex.uz -O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari Ma'lumotlari milliy bazasi 13. www.Ziyonet.uz. 14. www.veterinariya meditsinasi.uz 15. www.sea@mail.net21.ru 16. www.veterinary@actavis.ru
8.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.
9.	<p>Fan modul uchun mas'ullar:</p> <p>B.D. Narziyev – SamDVMChBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik"</p>

	<p>kafedra professori v.b., J.B. Yulchiyev – SamDVMChBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedra, dotsenti v.v.b., PhD.</p>
10.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>G'afforov U.B. – Samarqand Davlat tibbiyot universiteti "Yuz-jag" jarrohligi" kafedra mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p>Vahidova D.S. – TDAU, "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedra professori, veterinariya fanlari nomzodi.</p>